
TUMAN HOKIMI O'QUV MASSASALARIDAGI TA'LIM JARAYONINI O'RGANMOQDA



Qo'shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlar, o'quv-tarbiyaviy jarayonlar, olib borilayotgan dars mashg'ulotlari bilan yaqindan tanishmoqda. Jumladan, bugun Qo'shtepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabida bo'lib, o'quvchilar bilan suhbatlashdi.



Tuman hokimi o'quvchilar bilan ularning kelajakdagi rejalari, tanlamoqchi bo'lgan kasblari bo'yicha muloqot qilib, darslarni yaxshi o'zlashtirish, o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va unga intilish kerakligini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, tuman hokimi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida va 15 MTMLarda bo'lib, ushbu muassalardagi jarayonlar bilan ham yaqindan tanishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-02-27 21:24:02